ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Yuridika fakulteti talabasi

Muborak Genjaboyeva

JINOYAT VA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK O'RTASIDAGI FARQLAR

Kalit so'zlar:jinoyat,ma'muriy huquqbuzarlik,huquqiy javobgarlik,ijtimoiy xavflilik,jazo,sanksiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik tushunchalari,ularning huquqiy tabiati,tarkibiy belgilari hamda javobgarlik choralaridagi farqlar ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.

Shuningdek,jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlash mezonlari,ularning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda amaldagi qonunchilikdagi o'rni yoritib beriladi.

Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar eng keng tarqalgan turlar hisoblanadi.Ushbu ikki tushuncha o'zaro o'xshash jihatlarga ega bo'lsa-da,ularning huquqiy oqibatlari,javobgarlik darjasi va ijtimoiy xavflilik ko'lami jihatidan sezilarli farqlarga ega.Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni to'g'ri farqlash huquqini qo'llash amaliyotida adolatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari huquqni qo'llash amaliyotida ushbu ikki huquqbuzarlik turini to'g'ri ajratish muhimligini ko'rsatadi.

Asosiy qism:

Jinoyat tushunchasi va uning belgilari,jinoyat-jinoyat kodeksida nazarda tutilgan,ijtimoiy xavfli, aybli va jazolanishi mumkin bo'lgan qilmishdir.

Jinoyatlar jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi bilan tavsiflanadi. Jinoiy huquqbuzarliklar –bu jamiyatga xavf soluvchi, ko'pincha jismoniy, moliyaviy yoki ma'naviy zarar etkazadigan, jamiyatning asosiy tartiblarini buzadigan faoliyatlardir. Jinoiy huquqbuzarliklar orasida o'g'irlik, firibgarlik, qotillik, poraxo'rlik kabi jinoyatlar bor. Bu huquqbuzarliklar nisbatan jiddiyroq bo'lib, ularga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan.Jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi asosida amalga oshiriladi. Jinoiy jazolar esa ko'pincha uzoq muddatli qamoq jazolarini, moliyaviy jarimalarni yoki boshqa og'ir jazolarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, jinoiy huquqbuzarliklar jamiyatda nafaqat shaxsiy, balki umumiy xavfsizlikni tahdid qiluvchi holatlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar qonunchilikka xilof ishlar bo'lib, ular odatda fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini to'g'ri amalga oshirishda yo'l qo'ygan xatoliklardir. Ushbu huquqbuzarliklar, odatda, jamiyatning ahvoliga ta'sir qilmaydi, lekin davlat tizimining samarali ishlashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Masalan, soliq to'lamaslik, mehnat

huquqlari buzilishi yoki aholini ro'yxatga olishda xatoliklar kabi holatlar ma'muriy huquqbuzarliklar sifatida ko'riladi.

Jinoiy va ma’muriy huquqbuzarlik o’rtasidagi farqlar

O’zbekistondagi huquqbuzarliklar tizimi ikki asosiy turga bo'linadi: ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoiy huquqbuzarliklar. Ushbu turdagi huquqbuzarliklar o'rtasidagi farqlarni aniq tushunish, huquqni qo'llash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Har ikki turdagi huquqbuzarliklar o'rtasidagi farqlarni qonunchilik, jazolar tizimi, mas'uliyat va oqibatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishga yordam beradi

Jinoiy huquqbuzarliklar-jiddiyroq bo'lib, ular odatda jamiyatga katta zarar yetkazishbilan bog'liq bo'ladi. Ushbu huquqbuzarliklar, qonunlarga ko'ra, jinoiy javobgarlikka olib keladi va ularni amalga oshirgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. O'zbekistonda jinoiy huquqbuzarliklar, asosan, jinoyat kodeksi orqali tartibga solinadi.

Jinoyatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-ijtimoiy xavflilik;

-ayblilik(qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilishi);

-jinoyat kodeksida taqiqlanganlik;

-jinoiy jazo qo’llanilishi;

Jinoiy huquqbuzarliklar orasida quyidagilar keng tarqalgan:

O'g'irlik va firibgarlik;

O'ldirish yoki tanaga zarar yetkazish;

Narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlar;

Korruptsiya va boshqa davlat resurslaridan noqonuniy foydalanish

Ma’muriy huquqbuzarliklar-Ma'muriy huquqbuzarliklarga qarshi jazo odatda, jarimalar, ma'muriy qamoqlar yoki ma'muriy tazyiqlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi ushbu turdagi huquqbuzarliklar uchun jazo choralari va javobgarlikni belgilaydi.

Ma’muriy huquqbuzarlikning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi.

-ijtimoiy xavflilik darajasining pastligi;

-ma’muriy huquq normalari bilan tartibga solinishi;

-yengilroq jazo choralarining qo’llanilishi(jarima,ogohlantirish,ma’muriy qamoq)

O'zbekistonda ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklar o'rtasidagi farqlar qonunchilikda aniq belgilangan va bu tizim jamiyatda huquqiy tartibni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ma'muriy huquqbuzarliklar ko'proq jamiyatda kichik noqulayliklarga olib kelishi mumkin, ammo jinoiy huquqbuzarliklar jamiyatni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Har ikkala turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun davlat tomonidan samarali qonunchilik va tartiblar ishlab chiqilgan.

Xulosa

Jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarlar o’rtasidagi farqlarni aniqlash huquqiy adolatni ta’minlashda muhim ahamaiyatga ega.Jinoyatlar jamiyat uchun yuqori xavf tug’dirsa,ma’muriy huquqbuzarliklar nisbatan yengil zarar bilan tavsiflanadi.Ularni to’g’ri tasniflash shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish,shuningdek,huquqni qo’llash amaliyotida xatolarga yo’l qo’ymaslik imkonini beradi.

Shu bois,huquqshunos mutaxassislar ushbu farqlarni chuqur bilishi va amliyotida to’g’ri qo’llashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Saidov.A.X.’’Xuquqbuzarlik va huquqiy javobgarlik masalalari’’

2."Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi", O'zbekiston Respublikasi, 2019 yil.

3."Jinoyat kodeksi", O'zbekistonRespublikasi, 1994 yil.

4. Rustamboyev M.X.’’Jinoyat huquqi. Umumiy qism’’ – Toshkent.